

# INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

**ISSUE 9**



Acceptance of papers **September, 2025**



**Acceptance of  
papers**

Published monthly



**Topics**

economics,  
technology, social  
sciences



**ISSN 3060-5229**



Digital  
Object  
Identifier



Visit the website  
[t.me/scopus\\_IST2100](https://t.me/scopus_IST2100)



**EDITOR-IN-CHIEF:**

Mirzaliev Sanjar Makhmatjon ugli

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Makhmudov Nosir Makhmudovich  
DSc., Prof., Academician

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior  
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC  
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND  
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED  
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE  
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS  
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE  
FROM OCTOBER 9, 2024.

**CONTACTS**

Phone: **97-748-70-03**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: [munis.iriskulova@gmail.com](mailto:munis.iriskulova@gmail.com)

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

**Editorial board:**



**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,**  
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,**  
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



**Cham Tat Huei,**  
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



**Muhammad Imran Sadiq**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
Professor, Malaysia



**Ahmed Aziz Ismail**  
Doctor of Technical Sciences (DSc),  
Professor (Egypt)



**Lee Chin**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
(Malaysia)



**Asongu Simplicé**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),  
Cameroon



**Rui Dang**  
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



**Zahoor Ahmed**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



**Shujaat Abbas**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



**Tina A Coffelt**  
Doctor of Philosophy in Educational Sciences  
(PhD), USA



**Judy B. Smetana**  
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

# CONTENTS

The financial mechanism of the treasury service .....	6
<b>Zokir Safarboevich Mallaev</b>	
Improving reinsurance relations between Russia and Uzbekistan.....	10
<b>Mirzoev Saifullo Fayzulloevich</b>	
The impact of artificial intelligence on risk assessment and fraud detection .....	17
<b>Odilov Dilshod Quadratilla ugli</b>	
Optimization of manufacturing efficiency using simulation modeling: pharmaceutical products datamatrix labelling cost minimisation .....	26
<b>Aziz Saipov, Abdumalik Djumanov</b>	
Financial oversight in the public procurement process.....	35
<b>Abdushukurov Zafar Ismatovich</b>	
Evaluating and improving the efficiency of drinking water supply (the case of Samarkand region).....	38
<b>Pirova Shohina Khujmaxmatovna</b>	
Analysis of technogenic waste from iron-containing metallurgical production processes.....	45
<b>Axmedova Nigora Erkin qizi</b>	
Mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish .....	51
<b>Seitlepesov Azamat Orazbayevich</b>	

# MUDOFAA EHTIYOJLARI UCHUN HARBIY TA'MINOT TIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIGINING TARIXIY XAZINA AMALIYOTLARIDAN FOYDALANISH



**Seitlepesov Azamat Orazbayevich**

Jamoat xavfsizligi universiteti, mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0006-1118-3465

E-mail: azixazamat21@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy xazina amaliyotlaridan foydalanish, Ismoil Somoniy, Amir Temur qo'shin ta'minoti bilan bog'liq odil ijtimoiy-iqtisodiy islohot jarayonlari o'rganilgan. "Temur tuzuklari" bilan batafsil tanishish jarayonida mamlakatning harbiy tashkilotlari, mudofaa salohiyati, ularni rivojlantirish va takomillashtirish, moliyaviy, moddiy va boshqa resurslardan foydalanish tarixi yoritilgan. Respublikada erishiladigan yutuqlar tahlil qilinib taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mudofaani kuchaytirish, Markaziy Osiyo, Qurolli Kuchlar tizimi, Ismoil Somoniy davri, Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatlari, strategiya, "Temur tuzuklari", xazinachi, muhrdor, qo'shbegi.

**Abstract:** The article examines the processes of socio-economic reform related to the use of historical treasury practices of Central Asian statehood in the formation of the military supply system for defense needs, Ismail Samani, Amir Temur for the supply of troops. In the process of detailed acquaintance with Temur Tuzuklari, the history of the country's military organization, its defense potential, their development and improvement, and the use of financial, material and other resources are highlighted. The achievements of the republic were analyzed, suggestions and recommendations were given.

**Key words:** strengthening defense, Central Asia, the system of the Armed Forces, the era of Ismail Samani, military and political activities of Amir Timur, strategy, treasurer, printer, koshbegi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы социально-экономической реформы, связанные с использованием исторических казначейских практик центральноазиатской государственности при формировании системы военного снабжения оборонных нужд, Исмаила Самани, Амира Темура по снабжению войск. В процессе подробного ознакомления с "Темур тузуклари" освещается история военной организации страны, ее оборонного потенциала, их развития и совершенствования, использования финансовых, материальных и других ресурсов. Были проанализированы достижения республики, даны предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** укрепление обороны, Центральная Азия, система Вооруженных Сил, эпоха Исмаила Самани, военная и политическая деятельность Амира Тимура, стратегия, казначей, печатник, кошбеги.

## KIRISH

Bugungi kunda globallashuv va iqtisodiy inqirozlar sharoitida har bir mamlakat o'z rivojlanish yo'lini belgilash, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga intilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tanglik davrida davlatlarning asosiy vazifasi – resurslardan oqilona foydalanish, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish va milliy manfaatlarni himoya qilishdir. Shu jihatdan qaraganda, mudofaa ehtiyojlari uchun

yaratiladigan ta'minot tizimini shakllantirish masalasi ham iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki xavfsizlik tizimi taraqiyot, taraqqiyotsiz esa barqaror xavfsizlikni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat boshqaruvi va iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda milliy xavfsizlik tizimini shakllantirishga ham e'tibor qaratdi. Bu jarayonda xalqaro tajribadan foydalanish, bozor mexanizmlarini tatbiq etish, mudofaa xarajatlarini samarali boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor sohalarga ko'proq mablag' yo'naltirishga intilish kuzatiladi. Bu yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, mudofaa tizimi iqtisodiy imkoniyatlarga mos ravishda rivojlanishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida resurslar uchun raqobat kuchayib borayotgan, turli geosiyosiy va iqtisodiy mojaro o'choqlari yuzaga kelayotgan bir sharoitda "jamiyat xavfsizligi" tushunchasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu tushuncha nafaqat davlat chegaralarini himoya qilish, balki fuqarolarning kundalik hayotini barqaror rivojlantirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, zamonaviy harbiy ta'minot tizimlari faqat qurol-yarog' yoki texnika bilan emas, balki keng qamrovli iqtisodiy asoslar, ijtimoiy infratuzilma va innovatsion yondashuvlar bilan ham mustahkamlanishi lozim.

O'zbekiston kabi 38 milliondan ortiq aholi yashaydigan mamlakat uchun asosiy vazifa – Qurolli Kuchlarning salohiyatini mavjud imkoniyatlar doirasida samarali tashkil etish, ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdir. Bunda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish, xalqaro xavfsizlik mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi davrning o'zi global va mintaqaviy xavfsizlikni alohida emas, balki umumiy tizim sifatida ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish nafaqat mudofaa xarajatlarini optimallashtirish, balki harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, ularning professional darajasini oshirish, tajribali mutaxassislarni rag'batlantirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Harbiy sohada amalga oshiriladigan har qanday islohot oxir-oqibat kuchlarning birligini mustahkamlash, mamlakat mudofaa salohiyatini iqtisodiy imkoniyatlarga muvofiq holda rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Zero, davlat rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "xalqimizni rozi qilaylik" tamoyili jamiyatning barcha qatlamlariga, jumladan, harbiy xizmatchilarga ham tegishli. Bu tamoyil harbiy sohada olib borilayotgan islohotlarning asosiy mezoniga aylanib, ularning samaradorligini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va milliy manfaatlarni himoya qilishda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, mudofaa ehtiyojlari uchun harbiy ta'minot tizimini shakllantirishda nafaqat zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar, balki Markaziy Osiyo davlatlarining tarixiy xazina amaliyotlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki tarixiy tajribalar – xalqning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va amaliy merosida mujassam bo'lib, zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilganda, nafaqat samarali, balki o'ziga xos milliy modelni yaratishda ham yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u O'zbekiston sharoitida mudofaa ta'minot tizimini takomillashtirish jarayonida ilmiy-nazariy yondashuvlar, xorijiy tajriba va milliy merosning uyg'unligini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, xavfsizlik tizimini mustahkamlash va fuqarolarning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Markaziy Osiyo tarixida harbiy ta'minot va xazina tizimi masalalari davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida shakllangan bo'lsa-da, ushbu soha bo'yicha yozma manbalar yetarlicha ko'p emas. Xususan, Temuriylar davri tarixiy manbalarida ushbu tizimga oid ma'lumotlar cheklangan holda berilgan. Biroq mavjud manbalar orqali davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari va harbiy tuzilmaning iqtisodiy poydevorlari haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Masalan, markaziy boshqaruvda xazinchi (khazanchi), muhrdor (muhrdār) kabi mansablar mavjud bo'lib, ular davlat moliyasi, xazina mablag'lari va muhim hujjatlarning muhrlanishi uchun mas'ul bo'lgan. Bu lavozimlar faqatgina ma'muriy vazifalarni emas, balki harbiy yurishlar davomida moddiy va moliyaviy ta'minotni ham nazorat qilgan. Shuningdek, temuriylar davlati harbiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy boshqaruvning aniq mexanizmlarini qo'llaganini ko'rish mumkin.

Eng muhim yozma manbalardan biri — "Temur tuzuklari" (Tuzūk-i Timūrī) — Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy tashkilotdagi faoliyatini yoritadi. Unda harbiy yurishlarning tashkiliy jihatlari, lashkar ta'minoti, moliyaviy boshqaruv tamoyillari, shuningdek, qo'shinlarning intizomi va resurslardan foydalanish qoidalari aniq bayon etilgan. Bu asar nafaqat tarixiy hujjat, balki o'rta asrlarda harbiy ta'minot tizimining shakllanish jarayonini o'rganishda nazariy-uslubiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, harbiy tashkilotlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta'minlash davlat xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Bu borada Vasikovning "Analysis of Terms Related

to Military Positions in Sources of the Timurid Period” nomli tadqiqoti alohida e’tiborga loyiqdir. Muallif Temuriylar davri manbalarida uchraydigan amir, sipahsalar, qushbegi, tarkhan, mingbashi kabi mansablarni tahlil qiladi va ularning harbiy tashkilotdagi o’rni, vazifalari hamda logistik ta’minot bilan bog’liq jihatlarini ko’rsatib o’tadi.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlarda Markaziy Osiyo davlatlarida xazinachilik va moliyaviy boshqaruv tizimlari boshqa sivilizatsiyalar — masalan, Abbosiylar xalifaligi yoki mo’g’ullar davridagi tizimlar bilan qiyoslanadi. Bunday yondashuv tarixiy jarayonlarning umumiy va o’ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Jumladan, mo’g’ullar davridagi “yam” tizimi (logistika va pochta aloqalari) Temuriylar davrida qayta shakllantirilib, qo’shinlarning tezkor harakatlanishi va resurslar bilan ta’minlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar — V.V. Bartold, M.E. Subtelny, H. Bayani va boshqalar Temuriylar davlati tarixini o’rganishda moliya va harbiy boshqaruv tizimiga ham to’xtalib o’tganlar. Ularning asarlarida davlat boshqaruvi bilan bir qatorda iqtisodiy asoslarning harbiy siyosatdagi o’rni ham alohida ta’kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, Temuriylar davrida harbiy ta’minot tizimi faqat moddiy resurslarni yetkazib berish emas, balki davlat boshqaruvining barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritgan. Tarixiy tajribalar bugungi kunda ham mudofaa ehtiyojlari uchun iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, logistika tizimini takomillashtirish va resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan qimmatli ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish va qiyosiy tahlil usullari qo’llanildi. Ma’lumotlar davlat statistika qo’mitasi, xalqaro hisobotlar va ilmiy adabiyotlardan olindi. Ekspert intervyulari orqali sifatli ma’lumotlar yig’ilib, kontent tahlili yordamida tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil O’zbekiston tajribasini boshqa davlatlar bilan solishtirishga imkon berdi va asosiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan yirik davlatlari tomonidan harbiy sanoatni rivojlantirish va bunda raqobat kurashini kuchaytirish yo’li bilan o’z iqtisodiy va harbiy qudratini oshirib borishga bo’lgan intilishlari, o’z navbatida, boshqa mamlakatlar uchun harbiy xarajatlarni oshirib borishga bilvosita ta’sir ko’rsatmoqda.

Bunday tashqi omillar shuni ko’rsatadiki, hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy nobarqaror sharoitlarda har qanday mamlakat iqtisodiyotining amal qilishi va uning taraqqiyot darajasi davlat va uning organlariga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta’minlash bo’yicha yuklatilgan vazifalarni amalga oshira olish imkoniyati bilan belgilanishini ko’rsatadi.

Mamlakatning harbiy tashkilotlarini va mudofaa salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish uchun yetarlicha moliyaviy, moddiy va boshqa resurslarning ajratilishi davlatning xavfsizligini ta’minlaydi. Milliy xavfsizlikni yoki umuman, zamonaviy tushunchalarga ko’ra, jamiyat xavfsizligini ta’minlash tushunchasi mamlakatda turli ko’rinishdagi ijtimoiy xavfli jinoyatlarning oldini olish, korrupsiya darajasini pasaytirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish orqali mamlakat aholisi uchun farovon hayotni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu o’z-o’zidan milliy iqtisodiyotning tahdidlarsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuni hisobga olgan holda, 2017-yilda mudofaa doktrinasida mamlakat chegaralarini tashqi va transmilliy xavflardan himoyalash maqsadida Qurolli Kuchlar tizimini mustahkamlash vazifasi belgilandi. So’nggi yillarda Qurolli Kuchlar tizimini isloh qilish va mustahkamlash uchun o’rtacha xarajatlar me’yori YAIM hajmining 4,0-5,0 foizidan oshmagan bo’lsa, 2022-yilda davlat byudjetining “boshqa xarajatlar” qismida boshqa tuzilmalar uchun byudjetdan 38,1 trln.so’m, 2023-yilda – 44,4 trln.so’m, 2024-yilda ushbu mablag’lar miqdori 55,7 trln.so’m Davlat byudjeti xarajatlari amalga oshirilgan[1].

Mamlakatimizda kambag’allik darajasining o’sib borishini pasaytirishga oid islohotlar doirasida byudjetning xarajatlar qismida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoyani oshirish, mamlakatda kambag’allikni qisqartirish, yangi ish o’rinlarini yaratish, hududlarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilashning nazarda tutilishi moliyaviy mablag’larni shu sohaga yo’naltirish zaruratini keltirib chiqardi.

Biroq, ishonch bilan aytilish mumkinki, ajdodlarimizning bu borada katta tajribalari, bizning esa, ushbu tajribalardan oqilona foydalanish imkoniyatimizning mavjudligi ushbu sohada ma’lum darajada ham harbiy, ham oqilona moliyaviy islohotlarni amalga oshirish uchun yo’l ochadi.

Markaziy Osiyo tarixida qo’shin ta’minoti bilan bog’liq odil ijtimoiy-iqtisodiy islohot Ismoil Somoniy tomonidan amalga oshirilgan edi. Manbalarda keltirishicha: “Somoniy Bog’dod xalifalari kabi turklardan o’zlariga g’uvordiya (otliq askar) tashkil etdilar. Ismoil Somoniy davrida bular taxtning sodiq soqchisi hisoblanardilar (400 kishilik). Somoniylarda qopu-chi, sharbat-chi, sohib al-hirs (soqchilar boshlig’i), sohib ash-shurta (otliq

askar boshlig'i), voliylik, sohib al-hijob, vazirlik kabi mansablar bor edi"[3]. Arab xalifalari (Abbosiylar) qurolli kuchlarining o'ziga xos jihati shundan iborat ediki, ular avval boshdan kam sonli bo'lib, lekin amaliy jihatdan doimiy armiyaning barcha funksiyalarini bajargan saroy gvardiyasi (xaros)ni tashkil qilgan edilar. Haqiqiy harbiy xizmatni olib borishlari uchun ularga maosh tayinlangan. Saroy gvardiyasi oliy sifatli qurol bilan ta'minlangan va yuqori maosh olgan. Masalan, otliqlar piyodalardan ikki baravar ko'p maosh olgan. Somoniylardan so'ng, G'aznaviy hukmdorlar ham Abbosiylar va Somoniylarning qo'shin tutish bo'yicha shunday tartibini davom ettirdilar[4].

Manbalarda keltirilishicha, Buxoroda yo'lga chiqqan qo'shin yo'lda dam olish uchun to'xtaganda yo'l davomini kuzatgan podsho Ismoil Somoniy ikki askarini jo'natib, yo'l yoqasidagi bog'dagi daraxtda necha dona olma borligini sanab kelishga xufya topshiriq beradi. Qo'shin dam olib bo'lgach, bog' oralab yo'lda davom etishi kerak edi. Qo'shin bog'dan o'tib, keyingi manzilda dam olish uchun to'xtashdan oldin podsho yana o'sha ikki askarini daraxtda qolgan va yerga to'kilgan olmalar sonini bilish uchun jo'natadi. Yerga to'kilgan o'n yettita olma bilan qo'shib hisoblaganda, daraxt olmalarining soni avvalgidek 4 mingta, degan xabarni oldi.

Bundan ko'rinadiki: birinchidan, birorta ham olmaga nazar solmagan qo'shinning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli juda barqaror bo'lgan; ikkinchidan, qo'shinning ma'naviy-ruhiy kamolotining yuksakligi uning tartib-intizomiga ham ta'sir ko'rsatgan; uchinchidan, podshoning o'zi qo'shin bilan kirib borgan yerlarni payxon qilish va iqtisodiy zarar yetkazishdan yiroq bo'lgan.

Ko'plab rus va g'arblik olimlarning tadqiqotlarida Ismoil Somoniy Markaziy Osiyoda Abbosiy hukmdorlardan keyin mustaqil pul islohotlarini amalga oshirgan, savdoni rivojlantirib, mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotga olib chiqqan islohotchi sifatida yoritiladi[5]. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida esa, uning mohir jangchi bo'lganligi va o'zining kam sonli, lekin professional jangchilardan iborat qo'shini bilan Xuroson shaharlarining ko'p sonli qo'shinini (odatda bu shahar hukmdorlarining qo'shin tarkibini dehqonlar, oddiy fuqarolar va ko'ngillilar tashkil etib, son jihatdan katta bo'lsa-da, sifat jihatdan u qadar yaxshi bo'lmagan. Ularning aksarini noprofessionallar tashkil etgan) mag'lub qilganligi to'g'risida ko'plab dalillarni topish mumkin.

Bundan ko'rinadiki, Ismoil Somoniyning iqtisodiy islohotchiligi qo'shinlar ta'minotining ham oqilona tizimini yaratishga va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini barqaror holatga olib chiqishga yordam bergan.

Markaziy Osiyo sharoitida iqtisodiy taraqqiyotga erishish omillarini biz shu keng hududlarda yashagan va yirik islohotlar qilgan qadim ajdodlarimizning tafakkur salohiyati bilan baholaymiz. Ular ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulotlarni ko'paytirish va ushbu mahsulotlarni atrofdagi qo'shni mamlakatlarga olib chiqishning puxta rejalarini tuzish bilan "xavfsiz savdo yo'llarini" ochishga muvofiq bo'lgan va bu borada yetarli tajriba to'plagan xalqlardir. Chunki Markaziy Osiyo "yer yuzida sochilib yotgan tabiiy boyliklari" yoki o'ziga xos iqlim sharoitlari, tranzit hudud sifatida qulay geografik joylashuvi tufayli hamma vaqt bu hududga ko'z tikkanlarning zulm va iskanjalaridan himoyalaniish uchun "mudofaa va iqtisodiy taraqqiyot"ning o'zaro uyg'un tizimini yaratgan xalqlar hududidir.

Mana shunday tizimni barpo etgan ajdodlarimizning buyuk vakili Amir Temurning islohotlariga to'xtalib o'tish, o'ylashimiz-cha, maqsadga muvofiqdir. Chunki buyuk jahongirning harbiy mahorati va qo'shin ta'minoti uchun amalga oshirgan islohotlari dunyo mamlakatlari tomonidan hamma vaqt katta qiziqish bilan o'rganib kelingan, uning harbiy siyosat borasidagi tadbirlaridan foydalanilgan.

Bu zotning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini boshqa buyuk ajdodlarimizning xuddi shunday o'rni bilan qiyoslashning aslo iloji yo'q[6]. Bu ishda bizga, eng avvalo, "Temur tuzuklari"[7]da aks ettirilgan g'oyalarga alohida e'tibor berib o'rganish va tegishli xulosalarni chiqarish qo'l keladi. "Temur tuzuklari"da bayon qilingan Sohibqironning islohotlarida mamlakatda tartib va adolat o'rnatish, odamlar va ularning mulklari xavfsizligini ta'minlash, shaharlar, yerlar va yo'llarni talonchiliklardan, sayohatchilar, savdogarlar va ularning mollarini talon-taroj qilinishidan xalos etish, savdo-sotiqqa, o'z so'zi bilan aytganda, unga tegishli bepoyon saltanatda oltinni ham hech qanday bosqinchilik va siquvga duchor bo'lmay xuddi oddiy buyum kabi boshda ko'tarib yurish darajasidagi xavfsizlik va qulaylik yaratishga erishildi.

Masalan, "Temur tuzuklari"da keltirilgan quyidagi: "Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlar-ki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarini g'aflat bosib, o'g'irlatib qo'yimasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin", deb bildirilgan fikr bayoni mamlakatda iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda qanday choralar ko'rganligini ko'rsatadi. Bu niyatni amalga oshirish uchun u hamma yo'llarda yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlovchi harbiy bekatlar qurdirib, u yerda jangchilar bekatlarini joylashtirdi[8].

Shuningdek, "Temur tuzuklari" bilan batafsil tanishish jarayonida unda: "...davlat-u saltanat uch narsa: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchchallasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda, saranjom tutadi... Aqlli vazir ulki, bir qo'li bilan raiyatni, ikkinchi qo'li bilan esa sipohni tutadi. To'g'rilik va rostlik bilan muomalada bo'lib, har ishning oqibatini o'ylab ish tutadi. Davlat foydasini ko'zlagani uchun birovga dushmanlik qilishni ko'ngliga keltirmaydi. Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo'ladiki, mamlakat obodonligi,

raiyat, sipohning tinch farovonligi, xazina boyligini doim ko'zda tutadi"[9], mazmundagi harbiy ta'minot bilan bog'liq fikrlar bildirilgan.

"Sipohga haq berish tuzugi"da quyidagi fikrlar mavjud: "Amr qildimki, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va oddiy sipohiyarlarga ushbu tartibda oylik berilsin. Oddiy sipohiyga, o'z vazifasini o'rinlatib bajarish sharti bilan, oyligi mingan otining bahosi bo'lsin. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayin qilinsin. O'nboshilar oyligi qo'l ostidagi oddiy sipohiyaridan o'n barobar ortiq bo'lsin. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa, yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo'lsin.

Yana hukm qildimki, sipohiyarlardan qaysi biri urush ishlarida xatolikka yo'l qo'ysa, oyligini o'ndan birga kamaytirsinlar.

Yana buyurdimki, o'nboshi yuzboshini tasdig'i bilan, yuzboshi mingboshining tasdig'i bilan, mingboshi amirlar amiri tasdig'i bilan haq olsinlar.

Amr qildimki, amirlar amirining oyligi o'z qo'l ostidagilardan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash, devonbegi va vazirlarning maoshlari esa, amirlarnikidan o'n barobar ko'p bo'lsin. Yasovullar, jasovullar, qalaqchilarning oyligi o'z xizmatlariga yarasha, mingdan o'n ming [ot bahosi miqdorida] bo'lsin.

Ushbu fikrlardan shunday xulosaga erishamizki, xazinani tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda tutish, ya'ni zamonaviy so'z bilan aytganda byudjet defitsitiga yo'l qo'ymagan holda Davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash va qo'shinning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror ushlab turish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri davlat boshqaruvi tizimida xazina va harbiy ta'minot masalalari tartibli yo'lga qo'yilgan bo'lib, xazinachi, muhrdor, qo'shbegi kabi mansabdorlar orqali resurslar nazorati ta'minlangan. Bu tizim mamlakatning xavfsizligi va markazlashgan davlat qurilishi uchun mustahkam asos bo'lgan. "Temur tuzuklari"da adolat, xavfsizlik va mol-mulk daxlsizligiga katta ahamiyat berilgan, bu esa harbiy ta'minot tizimining asosiy vazifalaridan biri — aholi va mulklarni himoya qilish ekanini ko'rsatadi.

Harbiy ta'minot tizimi faqatgina qurol-aslaha yoki oziq-ovqat yetkazish emas, balki jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida ham qaralgan. Tarixiy meros — bu faqat o'tmish xotirasi emas, balki bugungi kunda milliy xavfsizlik, harbiy tizim, moliyaviy ta'minot va davlatchilikni shakllantirishda ishonchli strategik resurs hisoblanadi. Temuriylar davri va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi asosida zamonaviy harbiy ta'minot tizimini ilmiy va amaliy jihatdan boyitishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Manba: [imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlar](https://imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlar) elektron sayti, 2025 yil 1 aprel
2. "JMT bosh kotibi: iqlim o'zgarishi qurolli to'qnashuvlar soni ko'payishiga olib kelishi mumkin", Manba: Kun.uz elektron axborot sayti, 2022 yil, 14 fevral
3. F.Temirov: Po'lat Soliyev (risola), Toshkent, "Abu Matbuot-konsalt", 2011 y., 21-b.
4. Я. Миньцзя: Аббасидские и саманидские военные институты как исторический контекст для Газнавидов. Институт стран Азии и Африки МГУ им. М.В. Ломоносова ул. Моховая, 11, Москва, Россия, 2020.
5. Fransuz sharqshunosi Sh.Fransua: «Histoire des Samanides»: Temuriylarning Xirotdagi saroyi tarixchisi Mirxond (1433-1498) ning "Samoniylar tarixi" asari tarjimasini.
6. "Temur tuzuklari".- T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. -344 b.
7. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj. B.Ahmedov tahriri ostida; / So'z boshi va izohlar B.Ahmedovniki / . – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 1996. 65-96-betlar.
8. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur (tarj. A.Mahkamov). – T.: "Fan" nashriyoti, 1994.-240-b.

**Proofreader:** Zokir ALIBEKOV

**Layout and Designer:** Oloviddin Sobir ugli

---

## 2025. № 9

---

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot\_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

**Our address:** Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,  
House 17.



**Acceptance of articles**

Published every monthly



**Directions**

Social, economic, political, technological, scientific



Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus

**CERTIFICATE NUMBER: №390637**

**ORDER NUMBER ACCORDING TO THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

**CONTACT:**



Contact us  
**+998 97 748 70 03**



Telegram channel  
**t.me/scopus\_IST2100**



Journal official website  
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>